

JALOLIDDIN MANGUBERDI - VATAN HIMYOYACHISI

**Odiljonova Dilnoza G`anijon qizi,
Qodirova Ruxshona Akmaljon qizi,
Rustamova Rayhona Zafarbek qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabalari**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tariximizdagи ulug‘ zotlardan biri mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilgan, Mankburni nomi bilan atalgan Jaloliddin Manguberdi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so`zlar: musulmon, mo`g`ul, sarkarda, sulton, amir, xokim,adolat, bosqin, qo`zg`olon, ittifoq, erk.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассказывается о Джалалуддине Мангуберди, одном из величайших людей в нашей истории, который мужественно сражался с монгольскими захватчиками, отдал свою жизнь за свободу Родины и был назван в честь Манкбурни.

Ключевые слова: мусульманин, монгол, военачальник, султан, эмир, правитель, справедливость, вторжение, мятеж, союз, свобода.

ANNOTATION: This article discusses one of the great figures in our history, Jalaluddin Manguberdi, also known as Mankburni, who bravely fought against the Mongol invaders and sacrificed his life for the freedom of the Motherland.

Keywords: Muslim, Mongol, commander, sultan, emir, ruler, justice, invasion, uprising, union, freedom.

KIRISH. Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to‘yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib o‘tildi. Jaloliddin Manguberdi faoliyati, mo‘g‘ul bosqini xususidagi qimmatli ma’lumotlar asosan an-Nasaviyning «Siyrat as sulton Jaloliddin Mankburni» (Jaloliddin Manguberdingin hayot faoliyati) asarida uchraydi. Shuningdek, Ibn al-Asir Otamalik Juvayniy, Rashididdin kabi o‘rta asr musulmon tarixchilari asarlarida ham shu davrga oid qator muhim ma’lumotlar keltiriladi.

Mazkur davr bo‘yicha XX asrdagi eng qimmatli ma’lumotlar Z.M.Buniyodovning «Xorazmshoh – Anushtegeniyalar davlati» kitobida qayd etiladi. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati va Chingizzon davlatining chegaralari bir-biriga tutashib ketishi natijasida bu davlatlar o‘rtasidagi yaxshi aloqalar asta-sekin salbiy tomona yura boshladi. Aloqalarning tobora yomonlashuvi ikki davlat o‘rtasidagi to‘qnashuvni muqarrar qilib qo‘ydi. Natijada Chingizzon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlati yakdil mudofaa taktikasini ishlab chiqqa olmaydi. Mo‘g‘ullar bosqini tobora kuchayayotgan bir davrda siyosiy kurash maydoniga Alouddin Muhammadning o‘g‘li- Jaloliddin Manguberdi kirib keldi. Jaloliddin og‘ir bir paytda Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan, imperiya qo‘smini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik yo‘liga, qolgani o‘z joni-mulkini asrash yo‘liga tushgan, sulton mamlakatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan, o‘zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo‘ldi. Jaloliddin shunday bir og‘ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g‘oliblikni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o‘g‘il bo‘lsada, buvisi Turkon-xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo‘lib, taxt vorisi etib Turkon-xotun urug‘idan bo‘lmish boshqa bir shahzoda Qutbiddin O‘zloqshoh valiahd deb e’lon qilingan edi. G‘azna, Bomiyon, Al-g‘ur, Bo‘st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar esa Jaloliddingga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo‘lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va uni o‘zidan uzoqlashib ketmasligini hohlar edi.

Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Xaraviyni, noib (o‘rinbosar) etib esa sarkarda Ko‘zbar Malikni tayinlaydi. Muhammad Xorazmshoh plevrit (o‘pkaga suv yig‘ilish) kasali bilan og‘rib taxminan 1220 yilning oxirlarida (hijriy 617 y.) quvg‘inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etadi. O‘limi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e’lon qilib, sultonlik ba’zi rutbalarini unga topshiradi. Jaloliddin o‘z inilari O‘zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to‘g‘ri Urganchga keladi. Tez orada unga Xo‘jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qo‘shiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shodu-xurramlik va katta umid bilan ko‘tib oladi. 1221 yilning 25 noyabri, payshanba kuni Sind daryosi

bo‘yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o‘rta asr musulmon tarixchilarining ta’kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro‘y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo‘smini misli ko‘rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini ko‘rsatdilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizzon qo‘smini ustunlikka erisha boshladi.


Chingizzon qanday qilib bo‘lmisin Jaloliddinni tiriklayin qo‘lga olishga buyruq beradi. Jaloliddin esa uni qo‘lga olishga intilayotgan mo‘g‘ul qo‘smini qo‘rshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib chiqib, Sind daryosi bo‘yiga yetib kelishga muvaffaq bo‘ladi. Daryo bo‘yida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddingga ular “... bizni o‘ldiring va mash’um asirlikdan qutqaring” deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho‘ktirishga ko‘rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O‘zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti Hindiston tomonga suzib o‘tadi. Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmasligi, uning jasorati va mardligiga Chingizzon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolib Chingizzon o‘z o‘g‘illariga qarata “Otaning faqat shunday o‘g‘li bo‘lishi lozim. U olovli jang maydonidan o‘zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg‘og‘iga chiqdimi, undan hali ulug‘ ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!”, -dedi va uning orqasida ta’qib etishni ta’qipladi. Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz u o‘z davrining farzandi edi. U qo‘sminlarining ko‘plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo‘ravonlik qilishlariga gohida ko‘z yumdi, xonavayronchilik keltiruvchi ishlarga bosh qo‘shti. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida salbiy fikrlarning ko‘payishiga, noroziliklarning kuchayishiga ham olib kelgan. Lekin nima bo‘lganda ham Jaloliddin Manguberdi o‘zining asosiy maqsadi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo‘llab quvvatlashlariga umid bog‘lagan edi. Lekin ko‘p holda ular bilan umumiyl til topa olmasligi, uning tashqi siyosat borasidagi zaif tomonidan dalolat berar edi. O‘z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning xokimiyati Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, u bilan ittifoq tuzishni hohlasmash edi. Ularning ba’zilari hatto mo‘g‘ullar bilan ochiqdan-ochiq yaqinlashish tarafdoi edilar. Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da’vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg‘ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga, o‘sib kelayotgan,

ertaga bizning o‘rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug‘ istiqbolga intilib yashashga chorlaydi. O‘zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida” qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra, yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi. Yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalariga va boshqalarga nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O‘zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, pyesalar yaratildi. 2000-yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi. ...Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O‘zbekistonning faxr-u g‘ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo‘lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig‘i va timsolidir. **XULOSA.** Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, 1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o‘rnatilishi, yurtboshimiz ta’kidlaganidek “g‘anim oldida bosh egmagan, tiz cho‘kmagan. Vatan deya halok bo‘lgan” milliy qahramonimizga xalqimizning ehtiromi, muhabbat, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo‘lib qoldi. Kelajak avlodni shunday ajdodlarimiz, ya`ni Jaloliddin Manguberdi singari Vatanni sevuvchi va ardoqlab, himoya qiladigan qilib tarbiyalash zarur.

Adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
2. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘rtta Osiyo tarixi. T., 2004.
3. Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999;
5. Jaloliddin Manguberdi (o‘zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999;
6. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999;
7. Buniyotov 3., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097—1231), T., 1998;
8. Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;

9. Bo‘riyev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
10. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, T., 1999;
11. Mirxondning „Ravzat us-safo“ asarida Jaloliddin Manguberdi zikri, T., 1999;
12. Tonariy O., Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri, T., 1999.
13. Akbar Zamonov. O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma’lum sahifalari. T.: Bayoz, 2019.



Research Science and Innovation House